

# Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar– mart holatiga

## RAQAMLAR:

- Faoliyat ko`satayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **759 taga o'sdi**
- Faoliyat ko`satmayotgan korxonalarning ulushi –0,1 f. **ka-maygan**
- Tugatilgan korxonalarga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **747 taga oshgan**.

2018 yilning yanvar-mart oyida viloyatimizda 962 ta yilning boshiga nisbatan korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko`satayotgan korx yangi tashkil etildi, bu esa ona va tashkilotlar soni 759 o'tgan yilning shu davriga ta (4,1 %) ga o'sgan hamda nisbatan 195 taga ko'pdir.


Shuningdek faoliyati tu gatilgan korxona va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7,1 % ning asosiy ulushi Qarshi ga kamaygan hamda ular shahrida (21,2 %), Koson ning soni 215 tani tashkil (8,8 %), Chiroqchi (7,8 %) etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko`satayotgan korx yangi tashkil etildi, bu esa ona va tashkilotlar soni 759 o'tgan yilning shu davriga ta (4,1 %) ga o'sgan hamda nisbatan 195 taga ko'pdir.

Faoliyat ko`satayotgan korxonalar va tashkilotlar shu davriga nisbatan 7,1 % ning asosiy ulushi Qarshi ga kamaygan hamda ular shahrida (21,2 %), Koson ning soni 215 tani tashkil (8,8 %), Chiroqchi (7,8 %) va Qarshi (7,6 %) tumanlari da kuzatilmogda.

## Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari), birlikda




***Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar  
va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi***  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 aprel holatiga)*

|                               | Ro'yxatdan o'tgan |                   | Faoliyat ko'rsatayotgan |                   |
|-------------------------------|-------------------|-------------------|-------------------------|-------------------|
|                               | birlikda          | jamiga nisbatan % | birlikda                | jamiga nisbatan % |
| <b>Qashqadaryo viloyatida</b> | <b>19930</b>      | <b>100,0</b>      | <b>19230</b>            | <b>100,0</b>      |
| Qarshi shahar                 | 4316              | 21,6              | 4069                    | 21,2              |
| Shahrisabz shahar             | 1252              | 6,3               | 1239                    | 6,4               |
| tumanlar:                     |                   |                   |                         |                   |
| G'uzor                        | 891               | 4,5               | 814                     | 4,2               |
| Dehqonobod                    | 1023              | 5,1               | 934                     | 4,9               |
| Qamashi                       | 1344              | 6,7               | 1322                    | 6,9               |
| Qarshi                        | 1483              | 7,4               | 1455                    | 7,6               |
| Koson                         | 1707              | 8,6               | 1690                    | 8,8               |
| Kitob                         | 1381              | 6,9               | 1372                    | 7,1               |
| Mirishkor                     | 609               | 3,1               | 595                     | 3,1               |
| Muborak                       | 773               | 3,9               | 728                     | 3,8               |
| Nishon                        | 688               | 3,5               | 653                     | 3,4               |
| Kasbi                         | 711               | 3,6               | 677                     | 3,5               |
| Chiroqchi                     | 1543              | 7,7               | 1504                    | 7,8               |
| Shahrisabz                    | 892               | 4,5               | 875                     | 4,6               |
| Yakkabog'                     | 1326              | 6,7               | 1303                    | 6,8               |

**Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat**



01.01.2018 y.




01.04.2018 y.


Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 96,4 %ni, shu bilan birga jami korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 3,6 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 96,3 % ni, faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 3,7 % ni tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyligi soniga nisbatan 23,4 % savdoda, 12,9 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 12,3 % qurulishda, 11,2 % sanoatda, 4,1 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 3,9 % tashish va saqlash, 2,2 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,1 % axborot va aloqa va 28,9 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

### **Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da**




### **Ro'yhatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda**




2018 yil yanvar-mart holatiga 962 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 25,4 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Qarshi shahrida (156 ta), Chiroqchi (85 ta), Yakkabog' (79 ta) va Koson tumanlarida (77 ta) tashkil etilgan. Eng kam G'uzor (25 ta), Kasbi (34 ta) hamda Muborak (41 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

### **Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda**



Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi savdoda (169 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (151 ta), sanoatda (140 ta), qurilishda (114 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari (38) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqada (9 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (25 ta) va tashish va saqlashda (297 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoxda.

## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda



## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda

|  | 2017 yil<br>yanvar-mart<br>holatiga. | 2018 yil<br>yanvar-mart<br>holatiga. |
|--|--------------------------------------|--------------------------------------|
| <b>Jami:</b>                                       | <b>767</b>                           | <b>952</b>                           |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi                 | 198                                  | 151                                  |
| Sanoat   | 166                                  | 140                                  |
| Qurilish   | 78                                   | 114                                  |
| Savdo  | 160                                  | 169                                  |
| Tashish va saqlash                                 | 21                                   | 19                                   |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar          | 52                                   | 38                                   |
| Axborot va aloqa                                   | 11                                   | 9                                    |
| Sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 8                                    | 25                                   |
| Boshqa turlari                                     | 73                                   | 297                                  |

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining ulushi savdoda (-2,1 f.p.), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (-1,1 f.p.), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (- 0,1 f.p. dan), kamayganligi, buning natijasida qurulishda (+0,9 f.p.), tashish va saqlashda (+0,5 f.p.), sanoatda (+0,2 f.p.), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (+0,1 f.p.dan) hamda boshqa faoliyat turlarida (+1,8 f.p dan) ulushining o'sishiga olib keldi.

### **Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan ulushi, foiz punktda**


| Iqtisodiy faoliyat turlari nomi                    | 01.04.2018 y. | 01.04.2017 y. | farqi (+ -) |
|--|---------------|---------------|-------------|
| Savdo  | 23,4          | 25,5          | -2,1        |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 2,2           | 3,3           | -1,1        |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida               | 12,9          | 13,0          | -0,1        |
| Axborot va aloqa                                   | 1,1           | 1,1           | 0,0         |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar          | 4,1           | 4,0           | 0,1         |
| Sanoat   | 11,2          | 11,0          | 0,2         |
| Tashish va saqlash                                 | 3,9           | 3,4           | 0,5         |
| Qurilish   | 12,3          | 11,4          | 0,9         |
| Boshqa turlari                                     | 28,9          | 27,6          | 0,8         |

### **Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiyl soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).**

2018 yil 1 aprel holatiga 15017 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 6915 ta, oilaviy korxonalar – 560 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 7057 ta, aktsiyadorlik jamiyatları – 42 tani va boshqalar 443 tani tashkil etadi.




## Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar-xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi, ming birlikda




## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 aprel holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 55 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 5 taga yoki 10,0 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 43 tasi qo'shma korxonalar, 12 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda




## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Qarshi shahar 22 ta (40,0 %), Kitob tumani 7 ta (12,7 %) Qarshi va Muborak tumanlari 4 ta (7,3 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Dehqonobod, Chiroqchi, Yakkabog' tumanlarida 1 ta (1,8 %), Koson, Nishon, Kasbi tumanlarida 2 ta (5,6 %), hissalariga tog'ri keladi. Mirishkor tumanida xorijiy capital ishtirokida korxona tashkil etilmagan. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

## Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hudular kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 aprel holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 36 ta (65,5 %), savdoda 9 ta (16,4 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 4 ta (7,3 %), tashkil qilgan, eng kamlari esa axborot va aloqada 1 ta (1,8 %), tashish va saqlashda 1 ta (1,8 %) va qurilishda 2 ta (3,6 %) tashkil qilgan. Shuningdek eng kam ulushi esa tashish va saqlashda hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

### **Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da**




2018 yilning yanvar-mart oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarning soni 2 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 taga kamaygan.

Bunda, Xitoy Xalq Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 1 ta, Janubiy Koreya Respublikasi – 1 ta, ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2018 yilda Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

## Kichik korxona va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 aprel holatiga Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 14861 tasi tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 aprel holatiga qaraganda 3,9 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi yani 3308 tasi (22,3 %) Qarshi shahriga, 1351 tasi (9,1 %) Koson, 1192 tasi (8,0 %) Qarshi hamda 1127 tasi (7,6 foizi) Chiroqchi tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

### Kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi, ming birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 14861 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 4462 tasi (30,0 %) – savdoda, 2449 tasi (16,5 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 2344 tasi (15,8 %) - qurilishda, 2096 tasi (14,1 %) - sanoatda, 783 tasi (5,3 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 727 tasi (4,9 %) - tashish va saqlashda, 295 tasi (2,0 %) - sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, 213 tasi (1,4 %) - axborot va aloqa sohasida, shuningdek 1492 tasi (10,0 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinish turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-mart holatiga 700 taga yaqin kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Qarshi shahrida (130 ta), Chiroqchi (65 ta), Qamashi (60 ta), Koson va Qarshi tumanlarida (53 ta) tashkil etilgan. Eng kam G'uzor (17 ta), Kasbi (25 ta) hamda Dehqonobod (27 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (169 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (151 ta), sanoatda (139 ta) va qurilishda (114 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (9 ta), tashish va saqlashda (19 ta) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (25 ta) tashkil etilgan.


## Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



## Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro`yxatidan o`tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 aprel holatiga 572 tani tashkil etib, ulardan 560 tasi yoki 97,9 % faoliyat yuritadi. Bu ko`rsatkich o`tgan yilninga shu davriga nisbatan olganda davlat ro`yhatidan o`tganlarning hamda faoliyat ko`rsatayotganlarning umumiy soni o`rtacha **21,4 %**ga oshganligini ta'kidlash lozim.

### Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarning 27,5 % yoki 154 tasi sanoat, 19,5 % yoki 109 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 17,9 % yoki 100 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 17,0 % yoki 95 tasi sovdo, 2,5 % yoki 14 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko`rsatish, 2,1 % yoki 12 tasi qurilish, 1,6 % yoki 9 tasi tashish va saqlash, 0,4 % yoki 2 tasi axborot va aloqa hamda 11,6 % yoki 65 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

### **Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da**



**Qashqadaryo viloyat statistika boshqarmasi  
Statistik registrlarni yuritish bo'limi boshlig'i**

Nashr uchun mas'ul: **T.Karayev**  
(0371) 230-84-10



**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat  
registri (KTYaDR) ma'lumotlari asosida  
tayyorlangan**